

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60230700-Amaliy filologiya bakalavriat ta'lif yo'naliishing
malaka talablari*

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «7» 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlari tavsifi	4
1.2.1.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari	5
2.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallshni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	13
2.3.1.	Kvalifikatsiya	13
2.3.2.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	14
2.3.3.	<i>60230700-Amaliy filologiya</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	14
	Bibliografik ma'lumotlar	15
	Kelishuv varag'i	16

1. 60230700–Amaliy filologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi

60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining me’yoriy muddati – 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60230700–Amaliy filologiya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolati doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari:

60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi – fan (“Tillar”) sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalari, lingvistik ekspertiza bilan shug‘ullanuvchi sohalar, nashriyotlar va matbaa korxonalari, nashriyot-matbaa majmualari, internet nashrlari, noshirlik mahsulotlarini tayyorlash, dasturiy mahsulotlar, boshqaruv va marketing, amaliy filologiya sohasi bilan bog‘liq fanlar, faoliyat vositalari, usullari, metodlari; ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat

muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60230700-Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida referent;
- Adliya vazirligi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarda davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchi va xodim; huquq-tartibot idoralarida, lingvistik ekspertiza bo‘lim (markaz)larida ekspert, sud jarayonida nutq eksperti sifatida ishlash;
- ommaviy-axborot vositalari tizimi va noshirlik ishi jarayonlarida muharrir, musahhih;
- reklama byurolarida xodim, kopirayter (reklama matnlarini yozadigan mutaxassis); turli saytlarda kontent-menejer (nashr yoki veb-sayt mazmuni uchun mas’ul shaxs) lavozimida ishlash;
- diplomatik vakolatxona va elchixonalar, turistik agentliklar, madaniyatta’rifat muassasalarida nutq tayyorlovchi (speech writer), matbuot kotibi sifatida ishlash;
- leksikografiya, til korpusini yaratish sohalari laboratoriya va markazlarida, loyihalarda ishlash;
- ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida matbuot kotibi, vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchi sifatida kasbiy faoliyat yuritish obyektlarini o‘z ichiga oladi.

1.2.3. 60230700-Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- amaliy filologik faoliyat;
- xizmat ko‘rsatish faoliyati;
- loyihalash-innovatsion faoliyat.

1.2.4. 60230700-Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy vazifalari

60230700-Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol nuqtayi nazarga;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o‘rnini va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lganda to'g'ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyatni bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijasini baholash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Amaliy filologik faoliyatida:

- o'zbek tilining amaldagi me'yor va tartiblari asosida turli xil va turdag'i matnlarni yaratish, shuningdek, turli tipdag'i matnlarni qayta ishlash, ularga ishlov berish, ya'ni matn tuzatish, tahlil va tahrir qilish, sharhlash, annotasiyalash, referatlashtirish, tavsiflash;
- har xil turdag'i matnlarni mohirona o'zgartirish (matnning uslubini, janrini, maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlash), jumladan, o'zgartirilgan matn asosida yangi publitsistik matnlar, tahliliy sharhlar va esselarni yaratish, ularni tahrir qilish va referatlashtirish;
- turli tipdag'i, ya'ni rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik matn hamda hujjatlarni boshqa tillardan ona tiliga, ona tilidan boshqa tillarga qilingan tarjima matnlarni tahrirlash;
- sud-ekspertiza ishlarida matnlarning mukammal lingvistik ekspertizasini amalga oshirish; sud jarayonida nutq eksperti sifatida ishlash malakasiga ega bo'lish;
- ta'limiylar, ilmiy madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-tashkiliy idoralar, bosmaxonalar, jamoaviy va aloqa sohalariga doir turli tipdag'i loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish kabi amaliyotlarda namoyon bo'ladigan professional bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;
- muayyan xorijiy tilni mukammal egallash va undan kasbiy faoliyatda foydalana olish;
- mas'ul muharrir sifatida internet-portalda yoki bosma nashrda yoxud axborot agentligi lentasidagi ma'lumotlarni joylashtirish, fakturani, ya'ni nashr konseptsiyasining g'oyasiga materiallar va mavzuning mosligini tekshirish, ta'sirchan sarlavhalarni o'ylab topish, ijodiy guruh ishini muvofiqlashtirish, sinchiklab qilingan tahrirdan so'ng materialni matbuotda yorita olish malakasiga ega bo'lish;
- kontent-menejer sifatida veb-saytni zaruriy mazmun (matnli va grafik ma'lumotlar) bilan to'ldirish, foydalanuvchilar bilan interaktiv ishslash, muloqot qilish hamda reklama qilingan mahsulotni sotib olish istagini paydo qila oladigan matn yozish malakasiga ega bo'lish;
- turli soha va tarmoqlar faoliyati talabiga mos mukammal matnlar yaratish borasida har qanday multimedia mahsuloti bo'yicha, dizayn, video, raqamli, zamonaviy multimedia texnologiya va vositalari hamda reklama sohasidagi texnik yangiliklardan xabardor bo'lish;
- musahhih sifatida matnni asl nusxasi bilan solishtirish va matn teruvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan imloviy va ishoraviy xatolarini tuzatish, o'rnatilgan texnik qoidalarning buzilishini bartaraf etish, rasmlar, sxemalar, diagrammalar bilan ishslash malakasiga ega bo'lish;
- o'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy, falsafiy-mantiqiy asoslarini chuqr o'zlashtirish, badiiy matnni filologik ekspertiza qilish yuzaşidan bilim va malakanı egallash;

- rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi amaliy filologiya yutuqlari bilan yaqindan muntazam tanishib borish, sohaga oid ilg'or tajriba va innovatsion usullarni jarayonga tatbiq qila olish kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

Xizmat ko'rsatish faoliyat:

- leksikografik, neyming, nashr mahsulotlarni targ'ib qilish va tarqatish faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holda xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'yicha marketing tadbirlarini tashkil qilish;

- lingvistik xizmat ko'rsatish faoliyatidan foydalanuvchilar bazasini shakllantirish va tahlil qilish;

- o'zbek tilidagi matn va so'zlar yuzasidan lingvistik ekspertiza xulosalarini tayyorlash;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ta'lim vositalari va o'quv adabiyotlari matning filologik ekspertizasini amalga oshirish va xulosa berish;

- turli shakl va mavzudagi reklamalar matnlarini tahrir qilish hamda ularni sifatli yaratish;

- leksikografik mahsulotlarning bosma va elektron turlari uchun lingvistik ta'minotni tayyorlash;

- mualliflar va qo'lyozmalar bilan ishlash, turli uslubdagi matnlarni yaratish va ularni tahrirlash, axborot texnologiyalariga asoslangan dasturlar, til korpuslari uchun lingvistik ta'minot yaratish kabi xizmatlarni ko'rsatish malakasiga ega bo'lish.

Loyihalash-innovatsion faoliyat:

- o'zbek filologiyasi, amaliy filologiya, amaliy tilshunoslik sohasida olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayangan holda soha muammolari yuzasidan kuzatish va tahlillar olib borish;

- izlanish va o'rganishlar natijasini referatlar, taqdimotlar, ilmiy ma'ruzalar, ilmiy maqolalarda taqdim qilish, soha doirasidagi innovatsiyalardan xabardor bo'lish, ularni faoliyatga tatbiq qilish;

- soha masala va mavzusiga oid ingliz tilidagi materiallarni o'qiy olish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- kasbiy faoliyat obyekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish, soha masalalari yechimiga oid amaliy loyihalarni amalga oshirish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60230700–Amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qо'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb

- masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
 - dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
 - xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, xorijiy hamkorlar bilan og'zaki va yozma muloqot qila olish;
 - tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasbiy faoliyatida foydalana bilish;
 - axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, xalqaro yozishmalarini va elektron aloqalarini olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
 - yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
 - sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirishning bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallish zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, tilshunoslik asoslari, sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;
- adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, adabiy qoida va hodisalarni bilish, soha masalalariga oid nazariy qarashlarni o'rganish, konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, adabiyotshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini amaliyatga tatbiq qilish;
- amaliy o'zbek tili fanining maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, o'zbek tilining fonetik, leksik, morfologik, morfemik, sintaktik lisoniy xususiyatlarini, o'zbek tilining substansial mohiyati, nazariy-amaliy masalalari tadqiqi va tatbiqini tahlil qilish, til hodisalarining substansial xususiyatlarini to'g'ri baholash, faoliyat jarayonida foydalana olish;
- badiiy adabiyot va badiiy asarlar matni ustida ishlash, badiiy matnlarni filologik ekspertiza qilish jarayoni bilan bog'liq adabiy hodisalar haqidagi bilim, ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirish, o'zbek adabiyotining tur va janriy masalalarini, barcha badiiy-estetik tabiatini, o'zbek adiblarining asarlari asosida tilning imkoniyatlarini, badiiy adabiyotning nutq, muloqot faoliyati bilan bog'liq imkoniyatlarini baholay olish, badiiy tahlil va tahrir asoslarini bilish, badiiy tahlil va tahrirni amalga oshirishning muhim metod, vosita va usullarini bilish, zamonaviy adabiy jarayon va adabiy tanqid masalalarini tahlil qilish, badiiy matnning filologik ekspertizasini turli aspektida amalga oshirish, tahlil etish, adabiy tanqidning mohiyati, vazifasi va faoliyati haqidagi ma'lumotlar ega bo'lish, tanqidchining mazkur

jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini anglash, adabiy tanqidning amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to‘g‘ri baholash;

– matn yaratish texnologiyasiga oid nazariy-amaliy masalalarni ilg‘ay olish, matn yaratish, uning birliklari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berish va baholash, matn yaratish bo‘yicha filologik malakalarga ega bo‘lish;

– o‘zbek tilining sotsiolingvistik xususiyatlarini bilish, amaliy filologiya va sotsiologiya munosabatlarini anglash, tahlil qilish, til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta’siri, til siyosati, millat va milliy til muammolarini farqlash;

– amaliy leksikografiya va terminografiya, kompyuter leksikografiyası, zamonaviy leksikografiya obyektlari, nazariy va amaliy masalalari yuzasidan bilimlarga ega bo‘lishi, leksikografik amaliyotning o‘ziga xos funksiyalarini belgilash, turli mavzu va shakldagi lug‘at yaratish, leksikografik tavsif va izohlarni shakllantirish malakasiga ega bo‘lish;

– amaliy psixolingvistika va eksperimental tadqiqotlarda metodik tayyorgarlik asoslardan xabardor bo‘lish, til psixologiyasi bilan bog‘liq nazariy va eksperimental bilimlarga ega bo‘lish, til ta’limi va nutq patologiyasi bog‘liqligini dalillay olish; psixolingvistika tarmoqlarini tilni qayta ishlash, nutqni yaratish, idrok etish, aqliy leksika va grammatika modellarini tahlil qila olish;

– Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo‘jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o‘lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, o‘z fikrini yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay bilish, tegishli matnni hujjat turiga va uning zaruriy qismlari mazmuniga mos tarzda mustaqil ravishda tuza olish, jo‘natilgan hujjatga tashkilot munosabatini aniq ifodalagan holda to‘g‘ri javob yozish, taklif yoki e’tiroz bildirish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosalash, umumlashtirish va bunda kirish so‘zlardan, iqtibos, ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– lingvistik ekspertizaga oid zamonaviy bilimlarni egallah, metodologik muammolarni anglash va ularga yechim topa olish; lingvistik ekspertiza tashkil etish ko‘nikmasi va ekspert xulosalarini shakllantirish; matn avtorizatsiyasi (qo‘lyozma matnlar, imzo, bosma ko‘rinishdagi matnlar (biror asar, anonim xat)), shaxsni obro‘sizlantirish ko‘rinishdagi konfliktli matnlar, reklama matnlari, tovar belgilari, siyosiy yoki ijtimoiy ko‘rinishdagi turli konfliktli matnlar, ovozli xabarlar identifikatsiyasi bo‘yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizaning turli ko‘rinishlarida umumiyy va xususiy jihatlarni farqlay olish, shu asosda konfliktli matn xususida ekspert xulosalarini shakllantirish, turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarni loyihalashtirish, konfliktli matnni mavjud fakt va belgilariga asosan xolisona baholash malakasiga ega bo‘lish;

– lingvokriminalistikarning jahon miqyosida va o‘zbek lingvokriminalistikasida mavjud tendensiyalarning amaliyotga tatbiqi masalasini o‘rganish; xatshunoslik ekspertizasi nazariyasi va amaliyoti, turli konfliktli matnlarning (har xil turdag‘i matnlar – yozma, og‘zaki va virtual (shu jumladan gipermatn va multimedya obyektlarining matnli elementlari); og‘zaki, yozma va virtual muloqot) nazariy va amaliy, sinxron, diaxronik, ijtimoiy-madaniy va dialektologik jihatdan o‘z tarixiy va nazariy jihatlarida, har xil mavjudlik belgilarini hisobga olgan holda kriminalistik jihatlarini aniqlash va baholash;

– matnni lingvokulturologik, psixolingvistik tahlil qilishning metodologiyasini va unga mos keladigan modelini o‘rganish; til va madaniyat munosabatini baholay olish, matnning antroposentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada yaqqol namoyon bo‘lishini, psixolingvistik tadqiqotlarda matnning *matn tuzuvchi–matn–retsipyentdan* iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o‘rganish malakasiga ega bo‘lish;

– til va mantiq hodisalari, ularning munosabati, dalillashning mantiqiy asoslarini bilishi, bilimlarning mantiqiy shakllari: muammo, faraz, nazariyani farqlashi; turkumlash hamda savol/javob-mulohazalarini hosil qilish vositalarini bilishi; murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqara olishi; ilmiy tanqid qilish oldiga qo‘yiladigan mantiqiy talablar hamda isbotlash va rad etish qoidalarini egallagan bo‘lishi;

– muloqotga kirishuvchanlik, nutqning ta’sirchanligi, shaxsiy va kasbiy nutq texnikasini egallashi; o‘z faoliyati jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishni tanlay olishi, muloqot nazariyasining asosiy qoidalari, madaniyatlararo, shaxslararo va ommaviy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi, madaniy xilma-xillik haqida tushunchaga ega bo‘lish, shaxsiy va kasbiy muloqot turlaridan foydalana olish malakasiga ega bo‘lishi;

– turli mazmundagi reklama matnlarini talablar darajasida yaratish uchun reklama nazariyasi va amaliyotiga oid ma’lumotlarni o‘rganish, reklama turlarini farqlash, reklama matnining ahamiyatini, uning filologik, psixologik, kommunikativ aspektlarini to‘g‘ri baholay olish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishi;

– kompyuter lingvistikasining semantik muammolari, semantika sohasi, uning tadqiq obyekti, nazariy-amaliy masalalarining mazmun-mohiyatini bilish, filologik hodissalarning semantik tabiatini va tarkibini tekshirish, tadqiq qilish, tahlil qila olish malakalarini egallashi;

– tahrir jarayonida muallif va muharrir munosabatini to‘g‘ri anglash, matnni bayon qilish usullari hamda matn tahrir qilish asoslaridan xabardor bo‘lish; matn tahlili va tahririni amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to‘g‘ri tushunib qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi;

– internet, axborot agentliklari, auditoriya, boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik fikrini o‘rganish xizmatlari, reklama agentliklaridan olingan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash; axborot to‘plashning turli usullari (intervyu texnologiyasi, kuzatish, hujjatlar bilan ishslash), ularni tekshirish, tanlash va tahlil qilish, jurnalistika usullaridan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;

– badiiy asarni, adabiy va boshqa matnlarni lisoniy tahlil etish, badiiy matnlarning filologik ekspertizasini amalga oshirish, soha va masala doirasida tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish hamda uning metodlarini qo‘llay olish;

– me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– kasbiy faoliyatga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash malakasiga ega bo‘lish;

– notiqlik mahoratining o‘ziga xos filologik jihatlari, so‘zamollik, nuktadonlikning mohiyati, vazifasi va faoliyati haqidagi ma’lumotlarga, shuningdek,

nutq, matn, muloqot jarayonida tilning imkoniyatlarini to‘g‘ri anglab, ulardan nutq vaziyati, fikr mavzusi kabilarga asoslanib qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish;

– o‘zbek tilining amaliy stilistikasi, akademik uslub fani orqali yuqori saviyadagi akademik matnlar bilan tanishish, akademik usul fani va boshqa fanlarning o‘zaro bog‘liqliklari haqida bilimlarga hamda matnlarni akademik tahrir qilishning usul va yondashuvlari haqidagi bilim va malakalarga ega bo‘lish;

– tahrir jarayonida muallif va muharrir munosabatini to‘g‘ri anglash, matnni bayon qilish usullari, turlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish hamda matn tahrir qilish asoslardan xabardor bo‘lish; matn tahlili va tahririni amalga oshirishi usul va yondashuvlarini to‘g‘ri tushunib qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish; tahrir mahorati fani va uning maqsad vazifalari haqida bilimga, tahrir mahorati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, uning ahamiyati haqida bilimlarga hamda tahrirning amalga oshirishning eng samarali va qulay usullardan xabardor bo‘lish va qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish;

– matn tarjimasi nazariyasi va amaliyoti, uning masalalari, matn tarjimasi jarayonida o‘zbek tilining imkoniyatlarini to‘g‘ri va to‘liq ta’milish vosita hamda omillarini baholay olish;

– amaliy dialektologiya va dialektal korpus masalalari va dolzarb vazifalari, adabiy til va shevalarning o‘zaro munosabati, muloqot jarayoni va matn tarkibida dialektologik hodisa va xususiyatlarning o‘rni hamda vazifasini to‘g‘ri baholash tamoyillarini bilish, shevalarni korpusda aks ettirish, shevalar korpusini tuzish asoslарini bilish, ko‘nikma va malakaga; etnografiya va uning muammo va masalalarini bilish, uning diaxron va sinxron amaliy tahlilini amalga oshirish ko‘nikma, malakasiga ega bo‘lish;

– korpus lingvistikasi masala va vazifasi, til korpuslarining tarkibi va tuzilishi, korpus lingvistikasida ilmiy va ta’limiy tadqiqot ishlarning reformasi, til korpuslari, til korpusi lingvistik, lingvodidaktik, ijtimoiy ahamiyati; korpus vositasida amalga oshiriladigan lingvistik amaliyotlar; til korpuslaridan faoliyatda foydalanish; Internetdan til korpuslarini topish va ular vositasida lingvistik amallar bajarish; shaxsiy til korpusi yaratish, o‘zbek tilining adabiy korpusini tuzishning nazariy va amaliy masalalarini bilish, adabiy korpusni yaratish yuzasidan ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– pragmalingvistika sohasi, maqsad va vazifalari, nazariy-amaliy masalalari, til imkoniyatlarining nutq, muloqot maqsadi, vaziyatiga ko‘ra namoyon bo‘lishi, muloqot va nutq jarayonida til burliklarining lisoniy va nolisoniy omillar asosida namoyon bo‘luvchi pragmatik xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va baholash tamoyillarini bilish, til birliklariga xos pragmatik belgi-xususiyatlarni farqlash, nutq va matn tabiatidan kelib chiqqan holda pragmatik ma’nolarni ochib berish;

– zamonaviy terminologiya asoslari, terminografiya masalalarini bilish, soha leksikasi muammo va yechimi yuzasidan kuzatish va tahlilni amalga oshirish, soha terminologiyasi bo‘yicha mavjud leksikografik mahsulotlarni tekshirish, ularni mukammallashtirishga doir amaliy vazifalarni bajarish metod va usullaridan foydalangan holda mustaqil faoliyatni amalga oshirish;

– til va ma’naviyat, ma’naviyat va madaniyat munosabatlarini tahlil qila olish, til va madaniyatning o‘zaro munosabatida shaxs, xalq, jamiyat masalasining tutgan

o'rni va ahamiyatini baholay olish, madaniyatning tilga ta'siri, tilning madaniyatni shakllantirish masalalarini tahlil qila olish;

– hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari, yozuv tarixi, yozuv islohotlari, kirill va lotin yozuvidagi o'zbek tilining imlo qoidalari, ularning o'zaro qiyosiy tahlili, o'zbek punktuatsiyasi asoslari, tinish belgilari turlari, o'zbek orfografiyasining prinsiplari, imlo qoidalari mazmuni, uni amalda qo'llay olish, tinish belgilari va ularni yozma nutqda qo'llay olish;

– o'zbek tili ortologiyasi muammolari, o'zbek tili adabiy nutqi me'yorlari va uni til egalarida takomillashtirishning amaliy masalalarini tadqiq qilishning metod va usullarini bilish, adabiy nutqni shakllantirish, adabiy me'yor asosida tahlil qilish va baholay olish;

– til birliklarining darajalanish hodisasiga munosabati, darajalanish qonuniyati va uning til birliklari semantikasida aks etishi, nutq tarkibida til birliklari darajalanishining namoyon bo'lish usullari, omil va vositalari yuzasidan bilimga ega bo'lish, nutq vaziyatiga ko'ra darajalanishning o'rni va vazifasini baholash ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;

– lingvistik ekspertizaning xatshunoslik tarmog'i maqsad va vazifalari, tadqiq manbai va predmeti, nazariy-amaliy masalalarini bilish, shaxsning yozma nutq bilan bog'liq harakat va holatini tekshirish, xat va uning ekspertizasini amalga oshirishning ilmiy-nazariy, sohaviy masalasiga oid vazifalar yuzasidan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;

– neyrolingvistik tadqiqot usullari, zamonaviy neyrolingvistikaning ilmiy-amaliy masalalarini anglash, neyrolingvistik tadqiqotlarning natijalari bilan tanishish; ontogenezda, ikkinchi tilni o'rganishda til va nutq rivojlanishining assosiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish, til buzilishining asosiy turlari va ularni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan ba'zi terapevtik usullari, ularning amaliy tatbiqi;

– ilmiy va ijodiy faoliyat, uni tashkil qilish va amalga oshirish, o'zbek tilining funksional uslublari, ilmiy uslub va uning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, ilmiy maqola, tezis, referat, annotatsiya, rezyume yozish, ilmiy axborot tayyorlash;

– adabiyot antropologiyani adabiy tanqid va antropologiyani o'zida mujassamlashtirgan fan sohasi sifatida bilish, ilmiy-amaliy masalalarini, adabiy asarlarni, ularning tuzilishi, mazmuni, tili va uslubini tahlil qiladilar, ular madaniy kontekstlarni qanday aks ettirishi va ular bilan o'zaro ta'sirini anglash, u orqali adabiyot va madaniyatning o'zaro ta'sirini, shuningdek, adabiyotning inson hayotining ijtimoiy-madaniy jihatlarini shakllantirish va aks ettirishdagi rolini o'rganish, xulosalar chiqarish, amaliyotga tatbiq qila olish; adabiy matnlarning qadriyat, e'tiqod, urf-odat, ijtimoiy munosabatlar va o'ziga xoslik kabi madaniyatning turli tomonlarini qanday aks ettirishi va sharhlashini bilish;

– o'zbek tili semantikasi masalalari, o'zbek tilidagi so'z va iboralarning ma'nolari va semantik munosabatlarni, o'zbek tilidagi so'z va konstruksiylar qanday ma'lumotlarni yetkazishini, munosabatlarni ifodalashini va atrofimizdagi olamni aks ettirishini bilish, o'zbek tili turli semantik ohang va tushunchalarni ifodalashga yordam beruvchi boy leksik va grammatik vositalar majmuasini, so'zlarning ma'nolarini, ularning leksik va grammatik xususiyatlarini hamda ularni birlashtirib semantik birliklar yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

adabiy terapiyaning adabiy asarlar va ijodiy usullardan foydalangan holda

ruhiy salomatlikni davolash va qo'llab-quvvatlashga samarali va noan'anaviy yondashuv sifatidagi o'rni va ahamiyatini bilish, amaliy masalalar ni hal qilish, amaliyotga tatbiq qilish; adabiy terapiyaning jamiyatda ruhiy salomatlik, o'z-o'zini rivojlantirish va madaniyatlararo tushunish uchun noyob va samarali yondashuv sifatidagi ahamiyatini ochib berish, amaliyotga tatbiq qila olish;

adabiy adaptatsiyaning adabiy asarni bir shakl yoki vositadan ikkinchisiga o'tkazish jarayoni haqidagi fan sifatidagi masalalarini o'rganish; ssenariylar, teatrlashtirilgan spektakllar, romanlar yoki boshqa adabiy asarlarni boshqa formatdagi yoki vositadagi tomoshabinlar uchun moslashtirish kabilar yuzasidan muayyan bilimlarga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahshi ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'naliishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: filolog-amaliyotchi.

2.3.2. 60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4710	157
Tanlov fanlar	1410	47
Malakaviy amaliyot	630	21
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15
Jami	7200	240

2.3.3. 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukda yuqorida hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4710	157	
1.01	DTIY1105	Davlat tilida ish yuritish	150	5	1
1.02	TA1105	Tilshunoslik asoslari	150	5	1
1.03	AT1105	Axborot texnologiyalari	150	5	1
1.04	AA1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.05	IT11-210	Ingliz tili I, II	300	10	1-2
1.06	AO‘T11-630	Amaliy o‘zbek tili I, II, III, IV, V, VI	900	30	1-6
1.07	O‘EYT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	F1204	Falsafa	120	4	2
1.09	MT1205	Matn tahriri	150	5	2
1.10	LKE12-520	Lingvokriminalistika va ekspertiza I, II, III, IV	600	20	2-5
1.11	ShMK13-410	Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya I, II	300	10	3-4
1.12	KL13-620	Korpus lingvistikasi I, II ,III, IV	600	20	3-6
1.13	DSh1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.14	ALT15-610	Amaliy leksikografiya va terminografiya I, II	300	10	5-6
1.15	MTA1605	Matn tarjimasi amaliyoti	150	5	6
1.16	TM1705	Til va mantiq	150	5	7
1.17	BTTA1705	Badiiy tahlil va tahrir asoslari	150	5	7
1.18	MYT1705	Matn yaratish texnologiyasi	150	5	7
2.00		Tanlov fanlar (10 ta fan)	1410	47	3-7
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	630	21	2, 4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200.	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7
OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, malaka talabi, o'quv reja, kompetensiya, kredit, modul, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, amaliy psixolingvistika, eksperimental tadqiqot, til korpusi, amaliy dialektologiya, matnning filologik ekspertizasi, o'zbek tilining sotsiolingvistik xususiyatlari, lingvistik ekspertiza, lingvokriminalistika, neyming, amaliy leksikografiya, terminologiya, terminografiya, reklama nazariyasi va amaliyoti, internet, axborot agentliklari, auditoriya, boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlari, reklama agentliklari, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, metodologiya, amaliy stilistika, lingvistik ekspertologiya, og'zaki, yozma va virtual muloqot, tilshunoslik va adabiyotshunoslik asoslari, adabiy terapiya, adabiy adaptatsiya, adabiy antropologiya, matn yaratish texnologiyasi, matn tarjimasi amaliyoti, badiiy tahlil va tahrir, .

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2023-yil

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor

Sh.Yakubov

2023- yil «07» 07
M.O'.



O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud-ekspertiza
markazi

Direktor v.v.b.

T.Orziyev

2023- yil «10» 07
M.O'.



O'zbekiston Milliy axborot
agentligi



Bosh direktor

A.Ko'chimov

2023-yil «10» 07
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Ekspert-
kriminalistika bosh markazi

Boshliq

S.Nuriddinov



2023-yil «10» 07

M.O'.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va
o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta’lim muassasalari va asosiy
kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“10 07 2023-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi direktori v.v.b. T.Orziyev, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori A.Ko‘chimov, Ichki ishlari vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi boshlig‘i S.S.Nuriddinov, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov birgalikda ToshDO‘TAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60230700 – Amaliy filologiya ta’lim yo‘nalishi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2016-yil 13-maydagagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4997-son, 2021-yil 22-iyundagi “2021/2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-5157-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek

tili va adabiyoti universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov



O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza
markazi direktor v.v.b.

T.Orziyev



O'zbekiston Milliy axborot agentligi

Bosh direktori

A.Ko'chimov



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Ekspert-kriminalistika bosh markazi
boshlig'i

S.Nuriddinov

